

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ VA SUV XO'JALIGI
VAZIRLIGI
SAMARQAND QISHLOQ XO'JALIK INSTITUTI

KURS ISHI

Mavzu: “Qishloq xo’jaligida foydaning shakllanishi va taqsimlanishi”

Bajaruvchi: «Buxgalteriya hisobi va audit» yo’nalishi, III bosqich talabasi

Sh.Saydullayev

Tekshirdi

M.Mardonov

Samarqand – 2015

MUNDARIJA

KIRISH.....

1-BOB. QISHLOQ XO'JALIGI ISHLAB CHIQRISH RESURSLARI VA
ULARDAN FOYDALANISH HOLATI TAHLILI.....

1.1. Yer-suv resurslari va ulardan foydalanish.....

1.2. Mehnat resurslari va ulardan foydalanish.....

1.3. Moddiy resurslar va ulardan foydalanish.....

2-BOB. QISHLOQ XO'JALIGIDA FOYDANING SHAKLLANISHI VA
TAQSIMLANISHI TAHLILI.....

2.1. Foyda tushunchasi, turlari, ko'rsatkichlari va ularni hisoblash
usullari.....

2.2. Qishloq xo'jaligida foydaning hozirgi holati tahlili.....

2.3. Qishloq xo'jaligida foydaning omilli tahlili.....

2.4. Qishloq xo'jaligida foydaning taqsimlanishi holati.....

XULOSA VA TAKLIFLAR.....

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....

KIRISH

Qishloq xo'jaligida foyda - korxonaning moliyaviy natijalarida asosiy ko'rsatkichdir. Chunki foyda korxonaning daromadlarini xarajatlaridan ortiq (ko'p) bo'lgan qismini ifodalaydi.

Foydani taqsimlash va foydalanishda, uning rag'batlantiruvchi funksiyadan oqilona foydalanish korxonlarni erkin raqobat sharoitida bir maromda faoliyat ko'rsatishda muhm o'rin o'ynaydi. Shu bilan birga foyda korxonalarini moliyaviy resurslarini tashkil etishda asosiy manbalardan biridir.

Foydaning yuqorida ko'rib o'tgan ahamiyati mikroiqtisodiyot (korxon) darajasida bo'lib, agar uni makroiqtisodiyot darajasida olib qaraydigan bo'lsak, byudjet daromadlarini shakillanishining asosiy manbalaridan biridir.

Bozor munosabatlari sharoitida har qanday tadbirkorlik faoliyatining asosiy maqsadi foyda olish va moliya-xo'jalik faoliyati natijalari bo'yicha biznes ishtirokchilarini moddiy manfaatdorligini taminlashdir. Foydani maksimal darajada ko'paytirish har bir korxon) faoliyatining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Foydaning hajmiga korxon) moliyaviy xo'jalik faoliyatining obyektiv va subyektiv omillari tasir ko'rsatadi.

Obyektiv omillariga: Korxon) iste'mol qiladigan material va energetek resurslarning bahosi, amortizasiya ajratmalarning me'yori, bozor kon'yukturasi kiradi.

Subyektiv omillarga: Tadbirkor faoliyatini boshqarishni tashkiliy - texnik darajasi ishlab chiqarilayotgan maxsulotning raqobatbardoshligini mahsulot ishlab chiqarish va sotish xarajatlari, tayyor mahsulotni sotish bahosi darajasi kiradi.

Sof foydani taqsimlash amaldagi meyoriy xo'jjatlarga mos holda korxon)larning nizomida belgilab qo'yiladi. Ammo korxon) xususiy bo'lsa sof foyda jamg'arma va istemol fondlariga bo'linadi. Korxon) aksionerlik jamiyati bo'lsa, aksionerlarning umumiy yig'ilishi qaroriga asosan, agar

xo'jaligi bo'lsa, xo'jalik a'zolarining umumiy yig'ilishi qaroriga asosan taqsimlanadi.

Mamlakatimizda hozirgi kunda mahsulot (ish xizmat)lar ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish to'g'risidagi nizomga asosan moliyaviy natijalarning soliq to'languncha qadar natija ko'rsatgichi bo'yicha olingan foyda taqsimlanadi.

Dividendlar – jamiyat tomonidan aksiyalar bo'yicha to'lanadigan barcha dividendlar aksiyaga ega bo'lgan aksiyadorlar o'rtasida har bir aksiyadorga tegishli aksiyalar soni va turiga munosib ravishda taqsimlanadi.

Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi qaroriga qarab dividendlar yiliga kamida bir marotaba to'lanadi.

Dividendlar pul shaklida aksiyalar qarz majburiyatlari, obligasiyalar va boshqa majburiyatlar yoki natura shaklidagi aksiyadorlar umumiy yig'ilishining qaroriga muvofiq ravishda kuzatuv kengashining tavsiyasi bilan to'lanadi.

Dividendlar amaldagi qonunlar asosida milliy valyutada to'lanadi. Qo'shma korxonalarda chet ellik investorlarga dividendlar chet el valyutasi ko'rinishida to'lanadi. Chet el investorlariga to'lanadigan barcha dividendlar O'zbekiston Respublikasining Markaziy bankining dividendlar to'lanadigan sanaga e'lon qilingan rasmiy ayirboshlash kursi bo'yicha hisoblanadi.

Ishlab chiqarish va sotish xarajatlarini kamaytirish, jadallashtirish asosida ishlab chiqarish xajmini oshirish foyda ortishining asosiy omillaridan biridir.

Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida tadbirkorlik faoliyatini rag'batlantirishning bosh omili foyda va uni taqsimlanishi hisoblanadi.

Korxonalarda foyda bugungi kunda korxonalar haqidagi qonunning moddasi va xissadorlik jamiyatlarida ta'sischi umumiy yig'ilishi qarori bilan taqsimlanadi. Yuqoridagi xolatlar bozor qonuniyatlariga ma'lum bir miqdorda zid keladi, chunki bozor sharoitida iqtisodiyotga davlat aralashuvi nisbatan past bo'ladi. Shunday ekan yuqoridagi xolat takomillashtirishni taqazo etadi.

Bitiruv malakaviy ishimizning maqsadi - Oqdaryo tumani misolida fermer xo'jaliklarida foydaning shakllanishini atroflicha tahlil qilib o'rgangan holda, uning taqsimlanishiga oid taklif va tavsiyalar berishdan iborat.

Maqsadni amalga oshirish davomida ba'zi bir vazifalar belgilab olindi:

- foyda tushunchasi, turlari, ko'rsatkichlari va ularni hisoblash usullarini nazariy yoritish;

- qishloq xo'jaligida foydaning hozirgi holati tahlilini amalga oshirish;

- qishloq xo'jaligida foydaning omilli tahlil qilish;

- qishloq xo'jaligida foydaning taqsimlanishi holatini o'rganish;

- mamlakatni modernizasiyalash sharoitida qishloq xo'jaligida foydani oshirish imkoniyatlariga doir takliflar ishlab chiqish.

1-BOB. QISHLOQ XO'JALIGI ISHLAB CHIQRISH RESURSLARI VA ULARDAN FOYDALANISH HOLATI TAHLILI

1.1. Yer-suv resurslari va ulardan foydalanish

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishning moddiy elementlari orasida yer resurslari muhim o'rinni egallaydi. U moddiy boylik yaratishning dastlabki shart-sharoiti va tabiiy asosi hisoblanadi. Klassik iqtisodchilar, yerni mehnat vositalari, mehnat predmetlari va manzilgoh joylarni yaratuvchi buyuk laboratoriya, xazina ekanligini ta'kidlaganlar. Yer resurslari - buyuk va hiech narsa bilan almashtirib bo'lmaydigan milliy boylik. Yer resurslari, boshqa ishlab chiqarish vositalardan

tubdan farq qilgani holda, asosiy ishlab chiqarish vositasi hisoblanib, bir qator o'ziga xos xususiyatlarga ega va qishloq xo'jalik ishlab chiqarishi iqtisodiga katta tasir ko'rsatadi.

1.Yer tabiat mahsuli. Inson mehnati tuproq xususiyatini o'zgartiradi, bu uning mehnat predmeti ekanligi. O'simliklarning rivojlanishi va o'sishga ta'sir ko'rsatishi uning mehnat vositasi ekanligi. Ikkalasi birgalikda uning ishlab chiqarish vositasi ekanligini bildiradi.

2.Yerning hududiy chegaralanganligi va uning takror yaratilmasligi. Yer boshqa ishlab chiqarish vositalari kabi insonning xohishi bilan ko'payib qolavermaydi.

3.Yerni almashtirish mumkin emasligi. Yerni boshqa ishlab chiqarish vositalari kabi almashtirib bo'lmaydi, undan boshqa ishlab chiqarish vositalarini ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanishiga qarab takomillashganlari bilan almashtiriladi.

4.Yerni siljitib bo'lmasligi. Yer qayerda joylashgan bo'lsa, o'sha yerda undan foydalanish mumkin, uni bir joydan boshqa joyga ko'chirish mumkin emas.

5.Yer uchastkalarining sifati bo'yicha turli tumanligi. Yer uchastkalariga bir xil miqdorda mablag' va mehnat sarflansa ham olinadigan mahsulotlar miqdori turlicha bo'lishi mumkin.

6.Boshqa ishlab chiqarish vositalari ishlab chiqarish jarayonida foydalanilganda eskiradi, o'zining foydalilik xususiyatini kamaytiradi va butunlay ishdan chiqadi.

Yer umrbodlik ishlab chiqarish vositasi hisoblanadi, eskirmaydi, aksincha u yaxshilab parvarish qilinsa, ko'p hosil beradi. Yerning bu xususiyatlari uning umrbodligiga, ya'ni parvarish qilinayotgan o'simlikni zarur ozuqa moddalari bilan qondirish va hosil yetishtirish xususiyatiga bog'liq. Iqtisodchilar tuproq unumdorligini uch turga ajratganlar:

1.Tabiiy 2.Sun'iy 3.Iqtisodiy

Tuproqning unumdorligi - quyosh, shamol, suv kabi tabiiy kuchlarning ta'sirida uzoq davom etgan tuproq hosil bo'lishi jarayonining natijasidir.

Tuproqning tabiiy unumdorligi, uning fizik, kimyoviy va biologik xususiyatlarini xarakterlaydi, u dehqonchilik uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega, iqtisodiy unumdorlikning asosi hisoblanadi. U insonning mehnat faoliyatiga bog'liq bo'lmagan holda harakat qiladi. Lekin tabiiy unumdorlik yerning potensial sifatinigina xarakterlaydi. Tuproq ozuqa moddalariga boy bo'lganligi bilan, unga ishlov berilmasa, ya'ni inson mehnati ta'sir etmasa, u kutilgan natijani bermasligi mumkin.

Insonning ishlab chiqarish faoliyati natijasida yaratilgan unumdorlik sun'iy unumdorlik deb ataladi, u ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanish darajasiga bog'liq bo'ladi va shuning uchun jamiyat rivojlanishining turli bosqichlarida bir xil emas.

Tabiiy va sun'iy unumdorlik birlikda iqtisodiy unumdorlikni tashkil qiladi. Tuproq unumdorligi - doimiy miqdor emas, u oshib borishi ham mumkin, pasayishi ham mumkin. Tuproq unumdorligi absolyut va nisbiy shakllarda ham o'rganiladi. Absolyut unumdorlik qishloq xo'jalik ekinlari hosildorligini xarakterlaydi. Nisbiy unumdorlik esa ishlab chiqarish xarajatlari birligi hisobiga olingan mahsulot miqdorida aks ettiriladi. Jahon fani va amaliyoti tuproq unumdorligining pasayib borishi haqidagi g'ayri ilmiy qonunning to'liq asossiz ekanligini isbot qildi. Bu qonunning mualliflari, ingliz iqtisodchisi D.Anderson hisoblanadi. Bu qonunga binoan yerga sarflangan qo'shimcha mehnat va kapital, qo'shimcha olinadigan mahsulotning miqdorini kamaytiradi. Bunga qarama-qarshi o'zbek iqtisodchisi professor A.A.Abdug'aniyev o'z ilmiy ishlarida tuproq unumdorligining oshib borish jarayonini qonun darajasiga ko'tarish haqida fikr yuritgan. Yerdan foydalanish xarakteri ko'pgina tabiiy, tarixiy, texnik, iqtisodiy va boshqa omillarga bog'liq bo'ladi. Bunda hal qiluvchi rolni sosial-iqtisodiy omil o'ynaydi. Jamiyatda hukmronlik qiluvchi ishlab chiqarish usuli, shuningdek iqtisodiy munosabatlarning holati yer munosabatlarining xarakterini aniqlaydi. O'zbekiston Respublikasining barcha yer resurslari yagona yer fondini tashkil etadi. Ular maqsadli foydalanishiga qarab, O'zbekiston Respublikasi yer kodeksining 2-bobida ko'rsatilganidek quyidagi kategoriyalarga bo'linadi:

1. Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar;
2. Aholi punktlarining yerlari;
3. Sanoat, transport, aloqa, mudofaa va boshqa maqsadlarga mo'ljallangan yerlar;
4. Tabiatni muhofaza qilish, sog'lomlashtirish, rekreasiya maqsadlariga mo'ljallangan yerlar;
5. Tarixiy-madaniy ahamiyatga molik yerlar;
6. O'rmon fondi yerlari;
7. Suv fondi yerlari;
8. Davlat zahira yerlari.

Respublikamizning umumiy yer fondi 44,8 mln. ga ni tashkil etadi, shundan 27,9 mln. ga yoki 62,3% qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlardir. Shu yerlarning 4 mln. 474 ming ga yoki 15,95% haydaladigan yerlardir. Yer fondining 5-6 mln. gektari dehqonchilikda foydalaniladi Ulardan 4,2 mln gektari sug'oriladigan yer bo'lib, shundan 1,6 mln ga cho'l zonasida, qolgan qismi suvli mintaqada joylashgan. Shu sug'oriladigan yerlarning 3 mln.ga ekinzordir.

Lalmikor yerlarning asosiy qismi Toshkent, Jizzax, Samarqand va Qashqadaryo viloyatlarida joylashgan bo'lib, 770 mln. ga yaqin maydonni tashkil etadi. Yer fondining 22,8 mln. gektarini cho'l yaylovlari tashkil etadi, shundan 10 mln. ga sur qo'ng'ir tuproqli, 13 mln. ga yaqini qum yerlardir. Qolgan qismi esa taqir, o'tloq va sho'rxok yerlardan iborat. Cho'l yaylov joylardagi sug'orishga yaroqli yalpi maydon 12 mln. gektarga yaqin. 1998 yilda Samarqand viloyatidagi jami yer maydonlari 422,4 ming ga ni tashkil etgan. Shundan davlat sektori 10,9 ming ga ni, nodavlat sektori 412,0 ming ga ni tashkil etgan. Nodavlat sektor bo'yicha 358,6 ming ga ni qishloq xo'jalik korxonalarini, 52,9 ming ga ni dehqon xo'jaliklari va 11,4 ming ga ni fermer xo'jaliklari band etishgan.

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi mulk munosabatlari sistemasida yer resurslari alohida o'rinni egallaydi. Yerga mulk munosabatining mohiyati quyidagilarda namoyon bo'ladi.

Birinchi dan, yerga mulkchilik, uning biror bir kishiga yoki guruhga tegishliligini bildiradi.

Ikkinchi dan, bozor xo'jaligi sharoitida yerga bo'lgan mulkchilik undan foydalanuvchilar va egalik qiluvchilarning iqtisodiy manfaatini manbai bo'lib qoladi, ya'ni pirovard natijada unga sarflanadigan yuqori unumli mehnatga manfaatini uyg'otadi.

Uchinchi dan, yerga bo'lgan mulkchilik o'z navbatida, faqat undan samarali foydalanishni emas, balki yer uchastkalarini holati uchun javobgarligini ham keltirib chiqaradi.

Uzoq tarixiy davr davomida mamlakatda yer resurslari davlatning monopol mulki bo'lib keldi, dehqon mulkdan uzoqlashtirilgan edi. Bu esa undan foydalanish samaradorligini pasaytirishga va qishloq xo'jaligini rivojlantirishini turg'un holatga olib keldi. Mamlakatdagi va xorijdagi ko'p yillik tajribalar shuni ko'rsatadiki, yer resurslarining davlatlashtirilishi, dehqonni unga egalik qilishdan va foydalanishdan chetlashtirish dehqon mehnatiga zaruriy iqtisodiy motiv yaratmaydi

Oqdaryo tumani fermer xo'jaliklarining yer fondi bilan ta'minlanish darajasini tahlil etdik (1-jadval).

1-jadval

Oqdaryo tumani fermer xo'jaliklarida yer maydonlari tahlili

№	Xo'jaliklar toifalari	2009 yil			2011 yil			2011 yilda 2009 yilga nisbatan o'zgarishi, +/-		
		soni	yer maydoni, ga	o'rtacha yer maydoni, ga	soni	yer maydoni, ga	o'rtacha yer maydoni, ga	soni	yer maydoni, ga	o'rtacha yer maydoni, ga
	fermer xo'jaliklari-jami	577	22430	38,9	469	22430	47,8	-108	0	9,0
1.	paxta-g'allachilik	243	19164	78,9	209	19164	91,7	-34	0	12,8
	- salmog'i, %	42,1	85,4	202,9	44,6	85,4	191,7	2,4	0	-11,1
2.	sabzavot-polizchilik	9	66	7,3	9	66	7,3	0	0	0,0
	- salmog'i, %	1,6	0,3	18,9	1,9	0,3	15,3	0,3	0	-3,5
3.	Bog'dorchilik-uzumchilik	221	1692	7,7	169	1692	10,0	-52	0	2,4
	- salmog'i, %	38,3	7,5	19,7	36,0	7,5	20,9	-2,3	0	1,2
4.	chorvachilik	72	1116,1	15,5	61	1116,1	18,3	-11	0	2,8
	- salmog'i, %	12,5	5,0	39,9	13,0	5,0	38,3	0,5	0	-1,6

5.	boshqalar	32	392	12,2	21	392	18,6	-11	0	6,4
-	salmog'i, %	5,5	1,7	31,5	4,5	1,7	39,0	-1,1	0	7,5

Manba: Oqdaryo tumani qishloq va suv xo'jaligi bo'limi ma'lumotlari

1-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, Oqdaryo tumanida 2011 yilda 469 fermer xo'jaligi mavjud bo'lib, 2009 yilga nisbatan 108 taga kamaygan. Tuman fermer xo'jaliklariga o'rtacha 47,8 ga yer maydoni to'g'ri kelib, 2009 yilga nisbatan 9 gektarga oshgan. O'rtacha yer maydonlari paxta-g'allachilikda – 91,7 ga, sabzavotchilik-polizchilikda – 7,3 ga, bog'dorchilik-uzumchilikda - 10 ga, chorvachilikda – 18,3 ga, boshqa yo'nalishlarda – 18,6 ga.ni tashkil etgan.

Yer resurslaridan samarali foydalanish o'z navbatida suv resurslaridan ham oqilona foydalanish zaruriyatini keltirib chiqaradi. Chunki o'simlik dunyosini suvsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Buni issiq o'lka hisoblangan bizning respublikamizda yaqqol ko'rish mumkin.

Shunday qilib, suvning ahamiyatini va uni tejash kerakligini quyidagi ma'lumotlar bilan tasdiqlash mumkin. Agarda tuproq tarkibidagi namlik 65-80 foiz bo'lsa, yerdan hosil olish mumkinligi ilmiy tadqiqotlar natijasidan ma'lum. Masalan, 1 s g'alla (bug'doy, roj, arpa, tariq)ni olish uchun 30-40 tonna, kartoshka uchun – 18-20 tonna, sholi uchun – 135-140 tonna va paxta uchun – 800-1000 tonna suv zarurdir. Suv o'simlik uchun fotosintez vazifasini o'taydi.

2-jadval

Qishloq xo'jalik ekinlarining sug'orish soni va me'yorlari

№	Ekin turi	Sug'orish soni	Sug'orish normasi, m ³ /ga	Mavsumiy sug'orish normasi, m ³ /ga
1.	G'o'za	5-7	800-1200	5000-8000
2.	Kuzgi bug'doy	4-5	700-800	3000-4000
3.	Makkajo'xori	7-8	700-800	5000-6500
4.	Beda	10-12	1000-1200	10000-12000
5.	Qand lavlagi	6-8	500-600	3000-4000
6.	Tamaki	7-8	750-850	5000-6500
7.	Kartoshka (ertangi)	7-8	400-500	3000-4000
8.	Pomidor	15-16	600-700	9000-10000
9.	Piyoz	18-20	500-600	9000-12000
10.	Sabzi (kechki)	8-12	500-550	5000-6000
11.	Chuchuk qalampir	14-15	600-700	9000-10000

12.	Boyimjon	15-16	600-700	9000-10000
13.	Oqbosh karam	14-15	600-700	9000-10500
14.	Bodiring	12-14	500-550	6000-7500
15.	Sarimsoq	7-10	500-600	4000-60000
16.	Qovun	5-6	600-700	3000-4000
17.	Tarvuz	5-6	600-650	3000-3900
18.	Qovoq	6-7	650-750	4550-6000
19.	Kungaboqar	3	600-800	1800-2400
20.	Sholi	-	-	3000 gacha

2-jadvalda qishloq xo'jalik ekinlarining o'rtacha sug'orish soni va normalari ko'rsatilgan.

Suvdan foydalanishda, eng avvalo, suvga bo'lgan talabni aniqlash muhimdir. Buning uchun har bir ekin turi bo'yicha yil mobaynida 1 gektar yer uchun qancha suv zarurligi aniqlanib, uni umumiy ekin maydoniga ko'paytirish yo'li bilan topiladi.

Suvdan foydalanishning iqtisodiy samaradorligi quyidagi ko'rsatkichlar yordamida aniqlanadi: 1 so'mlik xarajatlar hisobiga olingan qishloq xo'jalik mahsulotlarining, mehnat unumdorligining, sof daromad (foyda) ning o'sishi va shuningdek, 1 kub metr foydalanilgan suv hisobiga olingan qishloq xo'jalik mahsulotlarining, mehnat unumdorligining va sof daromad (foyda) ning o'sishi hisoblanadi. Suvdan o'simlikning talabidan kelib chiqqan holda rejali va me'yorda foydalanish yer resurslaridan foydalanishning va bir butun qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining samaradorligini oshirishga olib keladi.

1.2. Mehnat resurslari va ulardan foydalanish

Jamiyatning moddiy va ma'naviy boyliklarining tabiiy-iqtisodiy resurslar va manbalari inson mehnati hisoblanadi. 1995 yil 21 dekabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi «Mehnat Kodeksi»ning 1-bob 8-moddasida mehnatning ulug'vorligi to'g'risida shunday deyilgan: «Har bir shaxsning mehnat huquqlarini himoya qilish kafolatlanadi, bu himoya mehnat to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya qilinishini tekshiruvchi va nazorat qiluvchi organlar, shuningdek mehnat nizolarini ko'ruvchi organlar tomonidan amalga oshiriladi». Jamiyatning moddiy va ma'naviy boyliklarining manbalari inson mehnati hisoblanadi. Ingliz iqtisodchisi U.Petti XVII asrda mehnatni boylikning otasi deb atagan. Iqtisodchilar mehnatni kishilik hayotining asosiy sharti ekanligini va insonning o'zining ham kamolotga yetishuvi mehnat orqali amalga oshganligini aytib o'tgan. Mehnat – bu insoning maqsadli faoliyati bo'lib, bu jarayonda u tabiat predmetlarini o'zining ehtiyojlarini qondirish uchun moslashtiradi va o'zgartiradi. O'z kuchini qo'shgani holda inson, mehnat qurollaridan foydalanib, tabiat bergan materiallarni, kishilarning moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondiradigan moddiy ne'matlarga, boyliklarga aylantiradi. Mehnat jarayoni, insoning ish joyida, uning mehnat faoliyatining ma'lum natijalariga erishishga yo'naltirilgan harakatlarining to'plamini bildiradi. Bu ma'noda "mehnat jarayoni" tushunchasi, "ishlab chiqarish jarayoni" tushunchasiga nisbatan ancha tor tushunchadir. Ishlab chiqarish jarayoni har biri ma'lum bir bosqichni va tayyor mahsulot olishni aks ettiruvchi, bir butun

mehnat jarayonlari kompleksi bazasida amalga oshiriladi. Bundan tashqari, ko'p hollarda ishlab chiqarish jarayoni, inson mehnati ishtirokisiz ham, tabiiy omillar ta'siri ostida sodir bo'ladi. Mehnat jarayoni, ma'lumki o'z ichiga uch elementni: mehnat vositasi, mehnat predmetlari va bevosita inson mehnatining o'zini oladi. Ishlab chiqarish vositalarisiz mehnat jarayoni ma'nosiz bo'ladi, o'z navbatida inson mehnatisiz ishlab chiqarish vositalari ham o'likdir va hech narsa yarata olmaydi. Kishilar mehnati ishlab chiqarish vositalarini harakat qilishga va insonning maqsadini amalga oshirishga birga harakat qilishga majbur qiladi. Mehnat vositalari va mehnat predmetlarini yarata borib va tabiatga ta'sir etib, inson, o'zini ham o'zgartiradi, uning malakasi, bilimi va ishlab chiqarish tajribasi oshadi. Jamiyat rivojlanishi bilan mehnat vositalari takomillasha boradi, ishlab chiqarish jarayoniga yangi-yangi iqtisodiy resurslar jalb qilinadi. Fan va texnika o'z rivojlanishida qanchalik ilgarilab ketmasin, mehnat jarayonida mehnat o'zining yetakchilik, hal qiluvchi rolini yo'qotmaydi. Mehnat iqtisodiy kategoriya hisoblanadi va uning xarakteri ishlab chiqarish munosabatlari bilan aniqlanadi. Qishloq xo'jaligida amalga oshiriladigan ishlab chiqarish munosabatlarini takomillashtirish shunga yo'naltirilganki, bunda har bir xodimdan, mehnatga xuddi yollanma kunbaychidek befarq va ma'suliyatsiz emas, balki pirovord natijaga javobgarligini sezgan holda yondoshish, munosabatda bo'lishni talab etiladi. Oxir oqibat bu mehnatdan uzoqlashish degan g'ovni olib tashlaydi. Xo'jayin va yollanma xodim o'rtasidagi asosiy farqlar quyidagilardan iborat: birinchidan, xo'jayin ishlab chiqarish vositalariga va mos ravishda ishlab chiqarilgan mahsulotga ham mulkdor va xo'jayindir. Yollanma xodimda esa bu mulk yo'q; ikkinchidan, xo'jayinning daromadlari (mehnat haqi) pirovord natijalarga bog'liq holda va qoldiq prinsipi bo'yicha shakllanadi, boshqacha so'z bilan aytganda, sotilgan mahsulot qiymatidan moddiy va boshqa sarf-to'lovlar, soliqlar va boshqalar ajratib tashlangandan keyingi daromadlardan shakllanadi. Daromadlarning qolgan qismiga xo'jayin mustaqil egalik qiladi. Yollanma xodim ishda bo'lgan vaqtiga yoki bajargan ishining hajmiga qarab ish haqi oladi, u pirovard natijaga bog'liq emasdir.

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish samaradorligi mehnat resurslarining miqdoriga, tarkibiga, malakasiga va ulardan foydalanish samaradorligiga bog'liq. Qishloq xo'jaligida mehnat resurslariga mehnatga yaroqli erkaklar -16 dan 60 yoshgacha, ayollar -16 dan 54 yoshgacha, shuningdek qishloq joyda yashovchi o'smirlar va nafaqaxo'rlar kiradi.

Qishloq xo'jaligi korxonalarida mehnat resurslari tarkibiga

1. Doimiy;
2. Mavsumiy;
3. Vaqtinchalik ishchilar, shuningdek, shtatda turuvchi;
4. O'smirlar;
5. Nafaqaxo'rlar kiradilar.

Shu jumladan:

1. Doimiy ishchilarga - muddatsiz ishga qabul qilinganlar;
2. Mavsumiy ishchilar - 6 oygacha muddatga qabul qilinganlar;
3. Vaqtinchalik ishchilarga - 2 oygacha muddatga qabul qilin-ganlar kiritiladi.

Korxonalarining mehnat resurslaridan tashqari ba'zi hollarda qishloq xo'jaligida (mavsumiy ishlarda) mehnat shartnomasi asosida chetdan jalb qilinganlar mehnatidan ham foydalaniladi, shu jumladan yollanma ishchilar ham. Qishloq xo'jalikda mehnat resurslarining shakllanish va foydalanishning asosiy xususiyatlari quyidagilar:

1. Biologik ishlab chiqarish vositalari, tirik organizmlar - tuproq, o'simlik, hayvonlarni rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratish uchun xodimlar mehnati mazmunining yo'naltirilganligi. Bu qishloq xo'jaligida ishlab chiqarish tirik organizmlarining rivojlanishi, o'zgarishiga, ularning tabiatini noorganik elementidan organik moddalarga sintezlashuviga bog'liqdir;

2. Mehnat resurslaridan foydalanishning samaradorligi tabiiy, xususan, yerning umumdorligi va ob-havo iqlim sharoitlariga bog'liq. Chunki iqlim tez o'zgarib turganligi uchun o'simlik va hayvonotga qulay sharoit yaratish lozimdir;

3. Ko'p xodimlarning bir qancha mehnat vazifalarini bajarishi. Bunday aralashishning zarurligi ish turining ko'pligi va bajarish muddatining

mavsumiyligidan kelib chiqadi. Qishloq xo'jaligi xodimi alohida texnologik operatsiyalarni bajarishga ixtisoslashgan tor malakali bo'lmasligi kerak. Qishloq xo'jalik xodimi ma'lum turdagi pirovard mahsulot yetishtirishga keng ixtisoslashgan bo'lishi kerak;

4. Ishlab chiqarish jarayonida yer, mollar va boshqa resurslarning mustaqil emasligi. Pirovard mahsulot natijasiga iqtisodiy javobgarligini ta'minlash uchun xodimlarga umumiy yerlarni emas, balki aniq dalalarni, butun hayvonlarni emas, balki aniq mollar bosh sonini berkitib qo'yish lozimdir;

5. Mehnat jarayonlarining o'z-o'zini boshqarishi. Biologik ishlab chiqarish vositalaridan foydalanish, qishloq xo'jaligida, ayniqsa o'simlikchilikda biologik jarayonda sharoitlar tez-tez o'zgarib turadi, shuning uchun bu yerda chetdan turib boshqarish imkoniyati ancha chegaralangan;

6. Xodimlar daromadining o'simlikchilikda va chorvachilikda pirovard iqtisodiy natijalarga bog'liqligi. Bu bog'liqlik mehnat operatsiyalarini bajarish paytida xodimdan texnologik talablarga rioya qilishda o'zini qattiq nazorat qilishning bevosita sharti bo'lib hisoblanadi;

7. Xodimlar daromadining faqat ijtimoiy xo'jalikda emas, balkiy shaxsiy dehqon xo'jaligida ham qo'llanilishi. Samarali qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi uning mehnat resurslari bilan me'yori bo'yicha ta'minlashishiga bog'liq. Ish kuchi bilan yetarlicha ta'minlanmasligi ishlab chiqarish texnologiyasiga rioya qilinmaslikka, pirovard natijada mahsulotni yetarlicha olinmasligiga olib keladi. Mehnat resurslari bilan me'yordan yuqori darajada ta'minlanganlik esa ish kuchidan kamunum foydalanishga va mehnat unumdorligining pasayishiga olib keladi.

Oqdaryo tumani joylashuv jihatidan qulay iqtisodiy-jo'g'rofiy hududda joylashganligi sabab, doimiy o'sib boruvchi mehnat resurslari manbalariga ega. O'rganilgan 2009-2011 yillarda tumanda aholi soni 5500 kishiga yoki 4,6% ga oshganligi ham bunda yaqqol ko'rinadi.

3-jadval

Oqdaryo tumanida mehnat resurslari manbalarining shakllanishi

№	Ko'rsatkichlar	2009 yil	2010 yil	2011 yil	2011 yilda 2009 yilga nisbatan o'zgarish	
					mikdoriy, +/-	nisbiy, %
1.	Fermer xo'jaliklari a'zolari	20990	10720	11020	-9970	52,5
	Sh.j.: xotin-qizlar	11020	5146	5290	-5730	48,0
a)	Doimiy ishchilar	17002	9541	9808	-7194	57,7
b)	Yollanma ishchilar	3988	1179	1212	-2776	30,4
v)	Rahbar xodimlar	739	633	633	-105	85,7

*manba: Oqdaryo tumani Statistika bo'limi ma'lumotlari

3-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, fermer xo'jaliklarida mehnat resurslari soni maqbullashtirish natijasida kamayib borgan. 2011 yilda fermer xo'jaliklari a'zolari soni 11020 kishi bo'lib, 2009 yilga nisbatan 9970 kishiga yoki 47,5%ga kamaygan.

1.3. Moddiy resurslar va ulardan foydalanish

Qishloq xo'jaligini intensiv rivojlantirish hozirgi bosqichida mavjud ishlab chiqarish potensialining samaradorligini oshirishda moddiy-texnika bazasini kengaytirish qayta tashkil qilish va rekonstruksiya qilish birlamchi ahamiyatga egadir.

Qishloq xo'jaligini moddiy-texnika bazasi deganda, qishloq xo'jaligida mavjud bo'lgan barcha mehnat vositalari va mehnat buyumlari yig'indisiga tushuniladi. Uning tarkibiga yer resurslari, ishlab chiqarish imoratlari, inshootlari, qishloq xo'jaligi mashinalari va jihozlari, transport vositalari, mahsuldor va ishchi hayvonlari, ko'p yillik daraxtlar, suv resurslari, urug'lik, chorva oзуqalari, neft mahsulotlari, o'g'it, kimyo vositalari va boshqalar kiradi.

Qishloq xo'jaligi moddiy-texnika bazasi xalq xo'jaliginiig boshqa tarmoqlaridan bir qator xususiyatlari bilan farq qiladi:

Birinchiidan, qishloq xo'jaligi moddiy-texnika bazasida yer asosiy rol o'ynaydi. Qishloq xo'jaligi asosiy ishlab chiqarish vositalarining rivojlanishi bevosita yerdan qay darajada foydalanishga bog'liq. Yerning unumdorligi hap xil bo'lib, mahsulot birligi ychyn har xil miqdorda xarajat sarflanadi. Bu esa har xil unumdorlikka ega bo'lgan yerlarda bir xil miqdorda asosiy va aylanma vositalarga ega bo'lish zaruriyatini keltirib chiqaradi.

Ikkinchiidan, qishloq xo'jaligi moddiy-texnika bazasi har doim tabiiy sharoitlar ta'sirida bo'ladi. Qishloq xo'jaligi hududiy xarakterga ega bo'lib, har bir hududda tuproq - iqlim sharoitlari har xil bo'lishi tufayli har xil sistemadagi mashinalardan foydalanishga to'g'ri keladi. Shuning uchun hududlarda va hududlar ichidagi xo'jaliklarda moddiy-texnika bazasining tarkibi ham har xil bo'ladi.

Uchinchiidan, qishloq xo'jaligida ish davri bilan ishlab chiqarish vaqti bir biriga mos kelmasligi tufayli, ishlab chiqarish mavsumiy xususiyatga ega bo'lib, bu moddiy-texnika vositalaridan unumli foydalanishga salbiy ta'sir etadi. Ishlab chiqarish mavsumiy bo'lishi zahira urug'lik, oзуqa, yoqilg'i moylash materiallari va boshqalarga ega bo'lish zaruriyatini keltirib chiqaradi.

To'rtinchidan, qishloq xo'jaligi moddiy-texnika bazasining bir qismi jonli organizm (ishchi hayvonlar, mahsuldor mollar, parrandalar, ko'p yillik daraxtlar va hokazo)lardan iborat bo'lib, ulardan samarali foydalanish uchun ma'lum ishlab chiqarish vositalariga ega bo'lmoqlik kerak.

Beshinchidan, qishloq xo'jaligi taraqqiy etgan transport xizmati, sifatli yo'l qurilishini amalga oshirish, qishloq xo'jaligi texnikalarini ta'mirlash va saqlash ko'p miqdorda sarflar qilishni taqozo etadi,

Shuningdek, Har qanday ishlab chiqarish kabi kishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish uchun ham ishlab chiqarish vositalarining me'yoriy hajmda mavjud bo'lishini taqozo etadi.

Iqtisodiy nazariya fanidan ma'lumki, mehnat predmeti bilan mehnat qurollari birgalikda ishlab chiqarish vositalarini tashkil qiladi.

Mehnat predmetlariga ta'sir ko'rsatib, mahsulot ishlab chiqarishda odamlar tomonidan foydalaniladigan hamma buyumlar mehnat vositalari (qurollari) deyiladi. Odam mehnati ishlab chiqarishning qaysi moddiy elementlariga qaratilgan bo'lsa, o'sha moddiy element mehnat predmeti deb ataladi. Jamoa, shirkat, fermer va dehqon xo'jaliklari ixtiyorida bo'lgan mana shu ishlab chiqarish vositalari, ishlab chiqarish fondlari shaklida namoyon bo'ladi, bularning tarkibiga pulda baholanmagan, ya'ni korxonaning balansi aktivida ko'rsatilmagan tabiiy ishlab chiqarish vositalari kirmaydi. M: yer va suv to'liq baholanmaydi, quyosh issiqligi, shamol va boshqalar mutloq baholanmaydi.

Ishlab chiqarish fondlari qishloq xo'jaligida alohida iqtisodiy kategoriya shaklida foydalaniladi.

Ishlab chiqarish fondlaridan respublikamiz milliy daromadining asosiy qismini tashkil qiladi. Hozirgi paytda ASMDa foydalanilayotgan ishlab chiqarish fondlari jami xalq xo'jaligi fondlarining 35-40% tashkil etadi. Ishlab chiqarish jarayonida ishlab chiqarish fondlari jamoa mehnatining jamg'arilishi bir yo'la to'la aylanish — ya'ni ularni pul shaklidan moddiylashgan buyum shakliga, moddiylashgan buyum shaklidan tovar shakliga, tovar shaklidan pul shakliga aylanish - davrida namoyon bo'ladi. Qishloq xo'jaligida ishlab chiqarish fondlari

ishlab chiqarish jarayonida iqtisodiy ahamiyatiga, qo'llanish usullariga va xizmat qilish muddatiga qarab asosiy va aylanma fondlarga bo'linadi.

Asosiy ishlab chiqarish fondlari deb, ishlab chiqarish jarayonida bir necha bor ishtirok etib, o'zining tashqi ko'rinishini o'zgartirmaydigan, qiymatini mahsulot tannarxiga asta-sekinlik bilan o'tkazib boruvchi vositalarga aytiladi. Bularga ishlab chiqarish binolari, inshootlar, mashina va asboblari, transport vositalari, xo'jalik va ishlab chiqarish inventarlari, ishchi va mahsuldor hayvonlar, ko'p yillik daraxtlar va boshqa, ya'ni bir yildan ortiq ishlatiladigan vositalar kiradi.

Hozirgi vaqtda amaldagi klassifikasiyaga muvofiq xo'jaliklardagi asosiy ishlab chiqarish fondlari o'zining moddiy (natural) xarakteriga va ishlab chiqarish jarayonida bajaradigan xizmatiga qarab quyidagi guruhlarga bo'linadi;

1. Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan asosiy ishlab chiqarish fondlari (imorat, inshootlar, o'zatuvi moslamalar, mashina va qurollar, mahsuldor hayvonlar, ko'p yillik daraxtlar va boshqalar).

2. Qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan ishlab chiqarish fondlari (sanoat ishlab chiqarish vositalari, qurilish vositalari, savdo va umum ovqatlanish vositalari va boshqalar).

Qishloq xo'jalik korxonalarida asosiy fondlar natura va pul holida hisobga olinadi va rejalashtiriladi.

Natura ko'rsatkichlari asosiy fondlarning miqdori va sifati, shuningdek, xo'jalikning ishlab chiqarish quvvati to'g'risida fikr yuritish imkonini beradi. Asosiy ishlab chiqarish fondlarini pul bilan baholashda uning dastlabki qiymatiga xo'jalikka yetkazib berish xarajatlarini qo'shib hisoblanadi. Sotib olish qiymati va xo'jalikka olib kelish qiymati birgalikda asosiy ishlab chiqarish fondlarining dastlabki balans qiymatini tashkil etadi. Yosh mollarni katta yoshdagi mahsuldor yoki ish hayvonlariga o'tkazishda ularning parvarish qilishdagi tannarxi bilan baholanadi.

Asosiy fondlarning quyidagi pul shakllari mavjud:

1. Boshlang'ich qiymat - asosiy fondlarni tashkil etishdagi haqiqiy sarflangan xarajatlar.

2. Tiklanish qiymati - asosiy fondlarni sotib olish uchun sarflangan xarajatlar.

3. Qoldiq qiymat - asosiy fondlar qiymatidan eskirgan fondlar qismini chiqarib tashlashdan qolgan qismidir.

Asosiy ishlab chiqarish fondlari ishlab chiqarish jarayonida eskirib boradi, ya'ni dastlabki sifatini yo'qotib boradi, ma'lum muddat o'tgandan keyin ular ishga yaroqsiz bo'lib qoladi va ularni yangisi bilan almashtirish zaruriyati tug'iladi.

Asosiy ishlab chiqarish fondlari jismoniy va ma'naviy eskiradi. Asosiy fondlarning foydalanish jaranida eskirishi uning jismoniy eskirishidir. Jismoniy eskirish 2 xil bo'ladi:

1. Asosiy vositalarning ishlab chiqarish jarayonida, foydalanish natijasida asta-sekin o'z parametrini o'zgartirishi;

2. Asosiy vositalarning bekor turishi va ochiq maydonlarda qarovsiz qoldirilishi natijasida detallarining ishdan chikishi va korroziyaga uchrashi.

Bu xildagi eskirishlar ularning foydalanish darajasiga bog'liq.

Boshqa asosiy fondlar uchun ham qayta baholash koeffitsiyentlari ishlab chiqarilgan bo'lib, u quyidagi jadvalda keltiriladi.

4-jadval

Asosiy fondlar qiymatini qayta baholash koeffitsiyentlari

Nomi	Asosiy fondlarini qayta baholash koeffitsiyentlari eskirish miqdori					
	10% gacha	11% dan 25% gacha	26% dan 35% gacha	36% dan 55% gacha	56% dan 75% gacha	5% va undan ortiq
Binolar	2,9	13,8	27,5	9,2	8,1	5,5
Inshootlar	2,9	13,8	27,5	9,2	8,1	5,5
Uzatma qurilmalar	2,7	13,0	25,8	8,7	6,5	5,2
Mashina va asbob-uskunalar ulardan:	1,0	6,2	18,9	27,5	5,6	3,0

Kuchlanish va asbob-uskunalar mashinalari						
Ishchi mashinalar va asbob-uskunalar	1,0	6,2	18,9	27,5	5,6	3,0
Asboblari va laboratoriya asbob-uskunalar	1,0	6,2	18,9	27,5	5,6	3,0
Hisoblash texnikasi	1,0	6,2	18,9	27,5	5,6	3,0
Boshqa mashina va asbob-uskunalar	1,0	6,2	18,9	27,5	5,6	3,0
Transport vositalari	1,0	6,2	18,9	27,5	5,6	3,0
Uskuna, ishlab chiqarish anjomlari va boshqa turdagi asosiy vositalar	1,0	6,2	18,9	27,5	5,6	3,0

Asosiy fondlarning ma'naviy eskirishi ham 2 xil bo'ladi:

1. Yangi, ancha unumli va tejimli mashinalar ixtiro etilishi va ularning ishlab chiqarishga joriy qilinishi natijasida eskirgan mashinalarning jismoniy yeyilish muddati tugamasdanoq, qadrsizlanib ma'naviy eskirib qoladi.

2. Texnika taraqqiyoti va mehnat unumdorligining oshishi ham o'z navbatida ishlab turgan mashinalar qiymatini kamayishiga olib keladi va ma'naviy eskiradi.

2-BOB. QISHLOQ XO'JALIGIDA FOYDANING SHAKLLANISHI VA TAQSIMLANISHI TAHLILI

2.1. Foyda tushunchasi, turlari, ko'rsatkichlari va ularni hisoblash usullari

Foyda - bu realizatsiya qilish natijasida olingan sof daromadning qismi bo'lib, u mahsulot sotishdan keladigan mablag'dan - sotilgan mahsulotni ishlab chiqarish uchun sarflangan xarajatlarni yoki to'la tannarx qiymatini chiqarib tashlangan qismiga teng bo'ladi:

$$F = PT - TT$$

Foyda – bu faqat ishlab chiqarish jarayonida tashkil topgan natija hisoblanib qolmasdan, balki mahsulotlarni sotish jarayonida erishilgan oxirgi iqtisodiy ko'rsatkichdir. Eng avvalo unda jonli mehnat xarajatlari ifodalanadi, chunki uning asosida yalpi daromad yotadi, xodimlarning jonli mehnati bilan yangi mahsulot yaratiladi. Mehnat unumdorligi qancha yuqori bo'lsa, yangidan yaratilgan

qiymatdagi ish haqi salmog'i shuncha oz bo'ladi, uning bir qismi foydani tashkil qilishga ketadi. Foydada, shuningdek buyumlashgan mehnat xarajatlarining samaradorligi aks etadi. Mahsulot birligi hisobiga to'g'ri kelgan moddiy xarajatlar va ish haqi xarajatlarining kamayishi, baho o'zgarmaganda foydani ko'paytiradi va nihoyat bu ko'rsatkichda mahsulot sifati namoyon bo'ladi. Foyda bir qator muhim iqtisodiy vazifalarni bajaradi:

1.O'lchash vazifasi - foydadan ishlab chiqarish iqtisodiy samaradorligini umumlashtiruvchi ko'rsatkichi sifatida foydalaniladi.

2.Taqsimlash vazifasi - qo'shimcha mahsulotni taqsimlash vositasi sifatida.

3.Rag'batlantirish vazifasi - iqtisodiy rag'batlantirish fondini shakllantirish manbai sifatida.

Qishloq xo'jalik ishlab chiqarish rentabelligi sotilgan mahsulot bo'yicha hisoblanadi va ifodalash shakliga bog'liq holda absalyut va nisbiy ko'rsatkichlarda xarakterlanadi. Foydani aniqlash uslubi O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi tomonidan 1995 yil 27 yanvar 9-onli buyrugiga asosan tasdiqlangan «Foydani hisoblash nizomi» bo'yicha, keyinchalik, ya'ni O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 5-fevraldagi 54-son qaroriga asosan olib boriladi yoki «Moliyaviy natijalarni shakllantirish» bo'limidagi ma'lumotlar asosida hisoblanadi.

1.Yalpi foyda(zarar)(YaF) - qishloq xo'jalik korxonasi tovar mahsulotini sotishdan tushgan tushum, ya'ni sof pul tushumidan (SST)sotilgan mahsulot, tovar, ish va xizmat-larni ishlab chiqarish tannarxi(IT) olib tashlanadi. Bunda sof pul tushumi jami pul tushumidan qo'shimcha qiymat solig'i, aksiz solig'i, tashqariga chiqarilgan tovar solig'i, tovar sotib oluvchi tovarni qaytarib berish mumkin bo'lgan skidkalarini (tabiiy kamayish) chiqarish yo'li bilan aniqlanadi:

$$YaF = SST-IT$$

2.Korxonada asosiy faoliyatidan olingan foyda (zarar) (AFF). Buni aniqlash uchun yalpi foyda (zarar)dan sotish va ma'muriy xarajatlar(davriy xarajatlar)(DX) ayrilib, asosiy faoliyatning boshqa jarayonlaridan daromadlari(BD) va xarajatlari(BZ) ham mos ravishda qo'shib va chiqarib tashlanadi:

$$AFF = YaF - DX + BD - BZ$$

3. Korxonaning umumxo'jalik faoliyatidan olingan foyda (zarar)(UF). Asosiy faoliyatdan olingan foyda(zarar)dan olingan dividendlar, zayomlar bo'yicha foizlar, valyutaning kurs farqi, boshqa moliyaviy faoliyat bo'yicha daromadlar(MD)qo'shilib, xarajatlar va bank prosentlari(BX) ayriladi.

$$UF = AFF + MD - MX$$

4. Soliq to'laguncha foyda(zarar)(STF) umumxo'jalik faoliyatidan olingan foyda plus favqulotda(ko'zda tutilmagan) vaziyatlardan qurilgan foyda(FF) va minus zarar(FZ) sifatida aniqlanadi:

$$STF = UF + FF - FZ$$

5. Sof foyda(zarar)(SF). U soliq to'langandan keyin xo'jalik subyekt ixtiyorida qoladi, o'zida daromad(foyda)dan to'lanadigan soliqni(DS) va minus qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa soliqlar va to'lovlarni(BS) chiqarib tashlangan holda soliqlar to'langunga qadar olingan foydani ifodalaydi:

$$SF = STF - DS - BS$$

Qishloq xo'jaligida ishlab chiqarish rentabelligining mutloq ko'rsatkichi bilan bir qatorda uning nisbiy ko'rsatkichidan ham foydalaniladi. Bu ko'rsatkich o'zida rentabellik normasi va foyda normasini ifoda etadi.

Qishloq xo'jalik korxonalari mahsulotlari o'simlikchilik va chorvachilik tarmoqlari doirasida ayrim ekinlar va chorva hayvon turlari doirasida, ayrim mahsulot ishlab chiqarish va sotish harajatlari rentabelligi aniqlanadi. Bu ko'rsatkichni ishlab chiqarish, saqlash, qayta ishlash va sotish jarayonlarida qilingan harajatlarning qoplash muddatlarini aniqlashda universal deb hisoblanadi.

Shu bilan birga foyda samaradorlikni yagona va butun qamrab oluvchi ko'rsatkich hisoblanmaydi. Yangidan yaratilgan qiymatning bir qismi sifatida, u moddiy ishlab chiqarish sohasidagi xodimlar qo'shimcha mehnati bilan yaratilgan qo'shimcha mahsulotni pulda ifodalangan qismini ifodalaydi. Uning miqdori ma'lum darajada mahsulot bahosi darajasining asoslanganligiga bog'liq. Bundan tashqari, foyda strukturaviy o'zgarishlarga, yuqori rentabelli mahsulot turlarini ishlab

chiqarishni ko'paytirish yo'li bilan va past rentabelli mahsulot ishlab chiqarishni qisqartirish yo'li bilan ham oshishi mumkin.

Olib borgan izlanishlarimiz davomida Oqdaryo tumani fermer xo'jaliklarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlarini tahlil qilib o'tdik.

5-jadval

Oqdaryo tumani fermer xo'jaliklarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari tahlili

№	Ko'rsatkichlar	O'lchov birligi	2009 yil	2010 yil	2011 yil	2011 yilda 2009 yilga nisbatan o'zgarish	
						miqdoriy, +/-	nisbiy, %
1.	Yer maydoni	ga	22430	22430	22430	0	100
2.	Mehnat resurslari soni	kishi	20990	10720	11020	-9970	52,5
3.	Moddiy resurslar qiymati	mln so'm	9816,5	11244,2	11244,2	1427,7	114,5
4.	Jami daromad	mln so'm	36520	44796	54265,5	17745,5	148,6
5.	Jami xarajatlar	mln so'm	30982	35946	42633,4	11651,4	137,6
6.	Yalpi foyda	mln so'm	5538	8850	11632,1	6094,1	210
7.	Asosiy yetishtirilgan mahsulotlar:						
-	paxta	tonna	19610	19686	21577	1967	110
-	g'alla	tonna	56858	56511	50153	-6705	88,2
-	sabzavot	tonna	49969,5	52896	38746,7	-11222,8	77,5
8.	Rentabellik darajasi	%	17,9	24,6	27,3	9,4	152,6

*manba: Oqdaryo tumani qishloq va suv xo'jaligi bo'limi ma'lumotlari

5-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, Oqdaryo tumani fermer xo'jaliklari jami 22430 ga yer maydonida faoliyat olib borishgan. Ularda pul daromadi pul daromadi 2011 yilda 54265,5 mln so'm bo'lib, 2009 yilga nisbatan 17745,5 mln so'm yoki 48,6%ga oshgan. Foyda miqdori 2011 yilda 11632,1 mln so'm bo'lib, bu ko'rsatkichda ham 6094,1 mln so'm yoki 2,1 martaga o'sish kuzatilgan. Tuman fermer xo'jaliklarida asosiy qishloq xo'jaligi mahsulotlaridan paxta – 21577 tonna, g'alla – 50153 tonna, sabzavot – 38746,7 tonna yetishtirilgan bo'lib, bu ko'rsatkichlar ichida faqatgina paxta ishlab chiqarishda o'sish kuzatilgan. Paxta xom ashyosi esa 1967 tonna yoki 10% ga oshgan.

2.2. Qishloq xo'jaligida foydaning hozirgi holati tahlili

Foyda muhim iqtisodiy kategoriyalarning biri hisoblanib qo'shimcha mahsulotning bir shaklidir. Korxonalar (birlashma) tarmoq va butun xalq xo'jaligi ishlab chiqarishning tadbirkorligi faoliyatining umumlashtiruvchi ko'rsatkichidir. Foyda daromadning bir qismi hisoblanib, barcha mamlakatlar davlat byudjetining daromadlarini asosiy qismini tashkil etadi ya'ni davlat byudjetining asosiy manbai foydadan ajratmalar va to'lovlar hisoblanadi. Bundan tashqari foyda miqdorining ortishi ishlab chiqarishni samaradorligini ham ifodalaydi.

Foydaning miqdori bir qator muammolarni xalq etilishini ham ta'minlaydi:

- Korxonaning moliyaviy ahvoriga baho berish;
- Iqtisodiy rag'batlantirish fondlarini tashkil etish imkoniyatlari;
- Davlat byudjeti daromadlarini shakllanishi;
- Yuqori organ majburiyatlarini bajarilishini ta'minlovchi.

Hozirgi kunda foyda tadbirkorlik faoliyati subyektlarida yalpi ichki mahsulot qiymati bilan uni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari o'rtasidagi farq sifatida aniqlanadi. Agar ishlab chiqarish va sotish xarajatlari yalpi ichki mahsulot qiymatidan ustun bo'lsa, foyda o'rniga zarar ko'riladi.

Foydaning shakllanishi haqida gap borganda asosiy e'tiborni biz baho mexanizmiga qaratmog'imiz lozim. Chunki foyda iqtisodiyotning barcha bosqichlarida bahoning bir muhim elementi sifatida qarab kelingan. Fikrimizga oydinlik kiritish maqsadida quyidagi rasmni misol qilib olishimiz mumkin (23-rasmga qarang). Rasmdagi ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, foyda bahosining muhim elementlaridan biri hisoblanadi.

Markazlashgan rejali boshqarish davrida foyda baho tarkibiga normativ asosda samaradorlik ko'rsatkichiga nisbatan kiritilgan. Barcha ishlab chiqaruvchilarning teng va kafolatlangan foyda bilan ta'minlagan.

Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida baho ishlab chiqaruvchi bilan iste'molchilar orasida teng huquqli asosda kelishilgan holda belgilanadi. Bu yerda tovarga talab va taklif yetakchi o'rinni egallaydi. Bu xolatda baho tarkibiga normativ asosda foyda kiritilishi bekor qilinadi.

Bundan ko'rinib turadiki foyda mahsulot sotishdan tushgan tushumdan ishlab chiqarish va sotish uchun qilingan xarajatlarni chegirib tashlash orqali aniqlanadi. Bundan tashqari foyda tarkibiga boshqa tushumlar ham kiradi.

- A) Muddati o'tgan debitorlik va kreditorlik qarzlari to'lanishi;
- B) Shtraflar va boshqa shartnoma shartlari buzilishi evaziga tushumlar;
- V) Ish faoliyati davomida ko'rsatilgan barcha turdagi xizmatlardagi tushumlar;
- G) Baho pasayishi evaziga tushumlar;
- D) Valyuta oldi sotdi jarayonidagi farqlar evaziga olingan foyda yoki zararlar;
- Ye) Kim oshdi birja savdodan olingan daromadlar;
- Yo) Ish haqi tejash hisobiga olingan daromadlar;
- J) Ijara evaziga tushumlar;
- Z) Qo'shimcha xizmatlar ko'rsatish evaziga olingan tushumlar va boshqalar.

Demak biz yuqoridagilardan kelib chiqib foydani shakllanishining manbai barcha tushum evaziga to'g'ri keladigan daromadlardir.

Hozirgi kunda qishloq xo'jalik korxonalarini tarkibida fermer xo'jaliklari ishlab chiqarishda hal etuvchi kuchga ega bo'lmoqda. Tadqiqotimiz davomida ham aynan qishloq xo'jalik korxonalarini tarkibida fermer xo'jaliklarining turli asosiy ekin turlari bo'yicha foydasining o'zgarishi holatini tahlil qildik.

Oqdaryo tumani fermer xo'jaliklarida ekin turlari bo'yicha foydaning o'zgarishi (mln so'm)

№	Ko'rsatkichlar	2009 yil	2010 yil	2011 yil	2011 yilda 2009 yilga nisbatan o'zgarish	
					miqdoriy, +/-	nisbiy, %
1.	G'alla	2222	3103	4043	1821	181,9
2.	Paxta	736	2210	2980	2244	4,0 m ko'p
3.	Sabzavot	1599	2010	2267	668	141,8
4.	Kartoshka	189	222	270	80	142,5
5.	Poliz	8	6	16	8	2,1 m ko'p
6.	Meva	395	746	1065	670	2,7 m ko'p
7.	Uzum	103	70	222	119	2,2 m ko'p

*manba: Oqdaryo tumani qishloq va suv xo'jaligi bo'limi ma'lumotlari

6-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, tuman fermer xo'jaliklarida asosiy 7 ekin turi bo'yicha foyda miqdori oshgan. Jumladan, 2009-2011 yillar davomida foyda paxtachilikda – 4 marta, mevachilikda – 2,7 marta, uzumchilikda – 2,2 marta, polizchilikda – 2,1 marta oshgan bo'lsa, g'allachilikda - 81,9%, kartoshkachilikda – 42,5%, sabzavotchilikda – 41,8%ga oshgan. Foydaning miqdori esa 2011 yilda g'allachilikda – 4043 mln so'm, paxtachilikda – 2980 mln so'm, sabzavotchilikda – 2267 mln so'm, mevachilikda – 1065 mln so'mni tashkil etgan.

2.3. Qishloq xo'jaligida foydaning omilli tahlili

Hisobot yilidagi yalpi foyda hajmini biznes-reja bo'yicha ko'zda tutilgan foydaga yoki bazis yilidagi foyda summasiga solishtirib, uning mutloq va nisbiy miqdorlardagi o'zgarishi aniqlanadi. Boshqacha aytganda hisobot yilidagi foydadan bazis yilidagi yoki rejalashtirilgan foyda summasini ayirib, uning o'zgarishi (ko'payganligi va kamayganligi) aniqlanadi. Biz, bu yerda hisobot yilidagi foydaning bazis yiliga nisbatan o'zgarishining tahlilini keltirdik.

Hisobot yilida har bir mahsulotni sotishdan olingan yalpi foydaning bazis yiliga nisbatan o'zgarishini (ko'payishini yoki kamayishini) quyidagi formuladan foydalanib aniqlash mumkin:

$$(q_1p_1 - q_1z_1) - (q_0p_0 - q_0z_0) = \pm \Delta_{qpz}$$

bunda, q_1, q_0 – mos holda hisobot va bazis yillarida sotilgan mahsulot miqdori;

r_1, p_0 – mos holda hisobot va bazis yillarida sotilgan 1 s. mahsulotning o'rtacha sotish bahosi.

z_1, z_0 – mos holda hisobot va bazis yillarida sotilgan 1 s mahsulotning tannarxi.

Ushbu keltirilgan formuladan ko'rinib turibdiki, mahsulotni sotishdan olingan yalpi foydaning o'zgarishiga bevosita quyidagi uch omil ta'sir qiladi:

1. Sotilgan mahsulot miqdorining o'zgarishi ($q_1 - q_0$);
2. 1 s mahsulotning o'rtacha sotish bahosining o'zgarishi (r_1, p_0);
3. 1 s mahsulotning o'rtacha ishlab chiqarish tannarxining o'zgarishi ($z_1 - z_0$).

Yalpi foydaning o'zgarishiga omillarning ta'sirini «Ko'rsatkichlar farqi» va «Zanjirli bog'lanish» usullari yordamida aniqlash mumkin. Biz sotilgan paxta misolida 7- jadvalda keltirilgan ma'lumotlar asosida yalpi foyda tahlilini amalga oshiramiz.

Oqdaryo tumani bo'yicha paxtani sotishdan olingan yalpi foyda tahlili

№	Ko'rsatkichlar	O'lchov birligi	2009 yil	2011 yil	O'zgarishi, +/-
1.	Sotilgan mahsulot miqdori	tonna	19610	21577	1967
2.	1 tonna mahsulot sotish bahosi	ming so'm	520	726	206
3.	1 tonna mahsulot tannarxi	ming so'm	482,5	587,9	105,4
4.	1 tonna mahsulotdan olingan foyda	ming so'm	37,5	138,1	100,6
5.	Foyda	mln so'm	736	2980,5	2244,5

*manba: Oqdaryo tumani qishloq va suv xo'jaligi bo'limi ma'lumotlari

7-jadvaldan ko'rinib turibdiki, tuman paxta sotishdan 2011 yilda 2980,5 mln so'm foyda olib, bu 2009 yilga nisbatan 2244,5 mln so'mga oshgan. Buning sababini bilish uchun yuqorida keltirilgan omillarning ta'sirini tahlilini «Ko'rsatkichlar farqi» usuli yordamida bajardik.

Yalpi foydaning o'zgarishiga sotilgan paxta miqdori o'zgarishining ta'sirini aniqlash uchun hisobot va bazis yillarida sotilgan paxta miqdorlari orasidagi farqni bazis yilida 1 s paxtani sotishdan olingan foyda summasiga ko'paytiriladi, ya'ni quyidagi formuladan foydalanib aniqlash mumkin:

$$(q_1 - q_0) * (p_0 - z_0) = \pm \Delta_q = (21577-19610)*(520-482,5) = 73,8 \text{ mln so'm}$$

Demak, 2011 yilda 2009 yilga nisbatan sotilgan paxta miqdorining 1967 tonnaga oshishi natijasida paxtani sotishdan olingan yalpi foyda qiymati 2009 yilga nisbatan 73,8 mln so'mga ko'paygan. Xullas, sotilgan paxta miqdorining oshishi foyda o'zgarishiga ijobiy ta'sir qilgan. Sotilgan paxta miqdori bilan olingan foyda hajmi orasida bevosita bog'liqlik mavjud. Demak, sotilgan paxta miqdori oshsa, olinadigan foyda ham oshadi, kamaysa-kamayadi. Bizning misolda sotilgan paxta miqdorining oshishi foyda summasini oshishiga sababchi bo'lgan.

Foydaning o'zgarishiga ikkinchi omilning ya'ni 1 tonna paxtaning o'rtacha sotish bahosi o'zgarishining ta'sirini aniqlash uchun 2011 va 2009 yillaridagi o'rtacha sotish baholari orasidagi farqni 2011 yilda sotilgan paxtaning haqiqiy miqdoriga ko'paytiriladi, ya'ni quyidagi formuladan foydalanib, aniqlash mumkin:

$$(r_1 - r_0) \cdot q_1 = \pm \Delta_p = (720-520) \cdot 21577 = 4445,1 \text{ mln so'm}$$

Demak, 2011 yildagi 1 tonna paxtaning o'rtacha sotish bahosining 2009 yilga nisbatan 206 ming so'mga oshishi yalpi foyda summasini 4445,1 mln so'mga ko'paytirgan. O'rtacha sotish bahosining oshishi yalpi foydaning o'zgarishiga ijobiy ta'sir qilgan.

Demak, o'rtacha baho bilan foyda hajmi orasida bevosita bog'liqlik mavjud. Bahoning oshishi har doim foydaning oshishiga olib keladi, kamayishi esa kamaytiradi.

Foydaning o'zgarishiga 1 tonna paxta tannarxi o'zgarishining ta'sirini aniqlash uchun 2011 va 2009 yillardagi 1 tonna paxta tannarxlari orasidagi farqni hisobot yilida sotilgan paxtaning haqiqiy miqdoriga ko'paytiriladi, ya'ni quyidagi formuladan foydalanib aniqlash mumkin:

$$(z_1 - z_0) \cdot q_1 = \pm \Delta_z = (587,9-482,5) \cdot 21577 = 2274,4 \text{ mln so'm}$$

Demak, 1 tonna paxta tannarxi 2011 yilda 2009 yilga nisbatan 105,4 ming so'mga oshgan, natijada uning jami ishlab chiqarish tannarxi 2274,4 mln so'mga oshgan. Bu esa o'z navbatida yalpi foydaga salbiy ta'sir etib, uni shu summaga kamaytirgan. Shuning uchun ham oxirgi natija minus bilan ko'rsatilgan.

Sotilgan mahsulot tannarxi bilan foyda o'rtasida bilvosita bog'liqlik mavjud. Tannarx qimmatlashsa foyda kamayadi, aksincha tannarx arzonlashsa foyda ko'payadi. Bizning misolda 1 tonna paxta tannarxining qimmatlashishi (oshishi) umumiy xarajatni oshirib, yalpi foydani shu summaga kamaytirgan.

Keltirilgan omillar ta'sirlarining yig'indisi yalpi foydaning umumiy o'zgarishiga teng kelishi kerak. Buni quyida keltirilgan 8-jadvaldan ko'rish mumkin.

8-jadval

Oqdaryo tumani fermer xo'jaliklarida paxta sotishdan olingan yalpi foydaning omilli tahlili

№	Ko'rsatkichlar	O'lchov birligi	2009 yil	2011 yil	O'zgarishi, +/-
1.	Sotilgan mahsulot miqdori	tonna	19610	21577	1967
2.	1 tonna mahsulot sotish	ming so'm	520	726	206

	bahosi				
3.	1 tonna mahsulot tannarxi	ming so'm	482,5	587,9	105,4
4.	1 tonna mahsulotdan olingan foyda	ming so'm	37,5	138,1	100,6
5.	Foyda	mln so'm	736	2980,5	2244,5
-	Mahsulot miqdorining o'zgarishi hisobiga	mln so'm	x	x	73,8
-	1 tonna mahsulot sotish bahosining o'zgarishi hisobiga	mln so'm	x	x	4445,1
-	1 tonna mahsulot tannarxining o'zgarishi hisobiga	mln so'm	x	x	2274,4

*manba: Oqdaryo tumani qishloq va suv xo'jaligi bo'limi ma'lumotlari

8-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, Oqdaryo tumani fermer xo'jaliklarida paxta sotishdan olingan yalpi foyda 2011 yilda 2009 yilga nisbatan 2244,5 mln so'mga oshgan bo'lib, bu o'zgarishga 3 omil ta'sir etgan: mahsulot miqdorining o'zgarishi hisobiga - 73,8 mln so'm va 1 tonna mahsulot sotish bahosining o'zgarishi hisobiga – 4445,1 mln so'm ijobiy hamda 1 tonna mahsulot tannarxining o'zgarishi hisobiga – 2274,4 mln so'mlik salbiy ta'sir ko'rsatgan.

2.4. Qishloq xo'jaligida foydaning taqsimlanishi holati

Bozor iqtisodiyoti sharoitida foyda korxonalar xo'jalik faoliyati yakunlarini xarakterlovchi muxim iqtisodiy ko'rsatkichlardir.

Foyda - korxonaning moliyaviy natijalarida asosiy ko'rsatkichdir. Chunki foyda korxonaning daromadlarini xarajatlaridan ortiq (ko'p) bo'lgan qismini ifodalaydi.

Foydani taqsimlash va foydalanishda, uning rag'batlantiruvchi funksiyadan oqilona foydalanish korxonlarni erkin raqobat sharoitida bir maromda faoliyat ko'rsatishda muhim o'rin o'ynaydi. Shu bilan birga foyda korxonalarini moliyaviy resurslarini tashkil etishda asosiy manbalardan biridir.

Foydaning yuqorida ko'rib o'tgan ahamiyati mikroiqtisodiyot (korxonalar) darajasida bo'lib, agar uni makroiqtisodiyot darajasida olib qaraydigan bo'lsak, byudjet daromadlarini shakillanishining asosiy manbalaridan biridir.

Bozor munosabatlari sharoitida har qanday tadbirkorlik faoliyatining asosiy maqsadi foyda olish va moliya-xo'jalik faoliyati natijalari bo'yicha biznes ishtirokchilarini moddiy manfaatdorligini taminlashdir. Foydani maksimal darajada ko'paytirish har bir korxonalar faoliyatining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Foydaning hajmiga korxonalar moliyaviy xo'jalik faoliyatining obyektiv va subyektiv omillari ta'sir ko'rsatadi.

Obyektiv omillariga: Korxonalar iste'mol qiladigan material va energetik resurslarning bahosi, amortizatsiya ajratmalarining me'yori, bozor kon'yukturasi kiradi.

Subyektiv omillarga: Tadbirkor faoliyatini boshqarishni tashkiliy - texnik darajasi ishlab chiqarilayotgan mahsulotning raqobatbardoshligini mahsulot ishlab chiqarish va sotish xarajatlari, tayyor mahsulotni sotish bahosi darajasi kiradi.

Korxonalarida olinadigan foydani ko'paytirishga ishlab chiqarishni boshqarish va tashkil etish, ishlab chiqarilayotgan mahsulot tannarxi, sifati, sotish bahosi mahsulot hajmiga ta'sir qilib, bularni asosiy qismi korxonalar o'ziga, uning boshqaruvchilari mahorat va bilim darajasiga bog'liq bo'ladi.

Foyda turli xil ehtiyojlarni qondirishda asosiy moliyalashtiruvchi manba hisoblanadi. Shuning uchun foydani to'g'ri tashkil etish lozim. Chunki foydani taqsimlashda davlat, korxonalar va ishlovchilarning manfatlari bo'lib ushbu manfatlarni uyg'unlashtirish muammosi doimo mavjud.

Agar yalpi foydani, ya'ni korxonada daromadlarining xarajatlaridan ortiq qismini olib qaraydigan bo'lsak, ya'ni foyda quyidagicha taqsimlanadi.

1. Davlat byudjeti oldidagi majburiyatlarni bajarishiga.

2. Xo'jalik yurutuvchi subyekt ixtiyorida qoladigan foyda, istemol va jamg'armalarga taqsimlanishi.

Korxonalar olgan foydasi bo'yicha byudjet oldidagi majburiyatlarni foydalanish uchun daromad (foyda)dan soliq to'laydi, infratuzilmani rivojlantirish solig'ini to'laydi. Foyda solig'i va boshqa faoliyatdan byudjetga to'laydigan soliq va yig'implarni to'lagandan so'ng qolgan qismi sof foyda bo'lib xo'jalik yurutuvchi subekt ixtiyorida qoladigan sof foydani va undan foydalanishni korxonaning mulk shakli va xo'jalik yuritish shakliga bog'liq bo'ladi.

Sof foydani taqsimlash amaldagi meyoriy xo'jjatlarga mos holda korxonalarining nizomida belgilab qo'yiladi. Ammo korxonada xususiy bo'lsa sof foyda jamg'arma va istemol fondlariga bo'linadi. Korxonada aksionerlik jamiyati bo'lsa, aksionerlarning umumiy yig'ilishi qaroriga asosan, agar xo'jaligi bo'lsa, xo'jalik a'zolarining umumiy yig'ilishi qaroriga asosan taqsimlanadi.

Mamlakatimizda hozirgi kunda mahsulot (ish xizmat)lar ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish to'g'risidagi nizomga asosan moliyaviy natijalarning soliq to'languncha qadar natija ko'rsatgichi bo'yicha olingan foyda taqsimlanadi.

Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida foyda o'z ahamiyatini yo'qotmaydi. Barcha xo'jalik yurutuvchi subyektlar uchun faoliyatni baholovchi asosiy mezon bo'lib qoladi.

Foydaning balans (umumiy) hisob-kitob va qoldiq shakllari mavjud.

Balans (umumiy foyda) bu mahsulot sotishdan tushgan tushumdan uni ishlab chiqarish va sotish uchun ketgan xarajatlarni chegirib tashlangan qismiga yordamchi faoliyat evaziga olingan daromad, ortiqcha vositalarni sotish evaziga

tushgan tushumlar va boshqa noishlab chiqarish faoliyati daromadlarining yig'indisiga aytiladi.

Hisob-kitob foydasi, ko'pchilik hollarda korxonaga qolgan foyda ham deb yuritiladi. Uning iqtisodiy mazmuni bu balans (umumiy) foydadan byudjet to'lovlari (birinchi navbatda to'lovlar)ni chegirib tashlash orqali aniqlanadi.

Hisob-kitob foydasi korxonaga Nizomiga ko'ra umumiy yig'ilish qarori bilan taqsimlanadi. Korxonaga qoldirilgan foydaning umumiy yig'imi mustaqil ravishda foydalanadi.

Bu foyda evaziga quyidagi fondlar tashkil etilishi mumkin:

- zahira fondi;
- amortizatsiya fondi;
- ishlab chiqarishni rivojlantirish va fan texnika taraqqiyoti fondi;
- dividendlarga ajratma;
- boshqa fondlar.

Korxonaga Nizomi va normativ xujjatlarida fondlar tizimining soni va foydaning maqsadlari aks ettiriladi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida zahira fondi majburiy hisoblanadi. Qolgan fondlarni tashkil etish tartibi va ulardan foydalanish ta'sis xujjatlarida aks ettiriladi.

Zahira fondi balans foydadan soliqqa tortilgunga qadar qismidan tashkil topadi. Zahira fondiga uning miqdori ustav fondining 25 foizga yetgunga qadar ajratib boriladi. Yillik ajratma miqdori ta'sis xujjatlarida belgilangan tartib bo'yicha hisoblanadi.

Asosiy zahira fondiga ajratma korxonaning birinchi faoliyat ko'rsata boshlagan yildan boshlab amalga oshiriladi, chunki belgilangan foyda darajasiga erishgunga qadar bir ikki yilga davlat byudjeti to'lovlaridan ozod etiladi.

Amaliyotda zahira fondi korxonaning Nizomi va ta'sis xujjatlarida ko'rsatilgan maqsadlarda foydalaniladi.

Bundan tashqari ta'sis xujjatlarida sarflangan mablag'larni o'rnini qoplash ko'rsatilgan bo'lishi shart.

Amortizasiya fondi - mahsulot tannarxining tarkibiga kiritilgan amortizasiya ajratmalari hisobiga tashkil etiladi. Korxonalarining Nizom va ta'sis xujjatlarida alohida shartlar ko'rsatilmagan bo'lsa, xarakatdagi oddiy korxonalar kabi ajratmalar ajratib boriladi.

Agar amortizasiya ajratmasi mustaqil aniqlanadigan bo'lsa, ta'sis xujjatlariga tegishli mulkga oid amortizasiya ajratilishi Nizomi va uning aniqlash usuli qo'shib qo'yilishi shart.

Amortizasiya ajratmasi qimmatbaho qog'oz ixtiyorida bo'ladi, zaruriyati bo'lganda ustav jamg'armalari kapitalni kengaytirish maqsadida foydalaniladi.

Fan texnika taraqqiyoti va ishlab chiqarishni rivojlantirish fondi balans foydadan soliqqa tortilgunga qadar tashkil etiladi. Ushbu fondlarga ajratmalar normasi korxonalar ta'sis xujjatlarida qayd etilishi lozim. Yuqoridagi fondlarga ajratilgan mablag'lar asosan quyidagi maqsadlarda foydalaniladi:

- ishlab chiqarishni kengaytirish;
- modernizatsiyalash;
- marketing xizmatini tashkil etish;
- yangi turdagi mahsulotlar ishlab chiqarishga qaratilgan turli loyihalarni moliyalashtirish.

Dividendlar – jamiyat tomonidan aksiyalar bo'yicha to'lanadigan barcha dividendlar aksiyaga ega bo'lgan aksiyadorlar o'rtasida har bir aksiyadorga tegishli aksiyalar soni va turiga munosib ravishda taqsimlanadi.

Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi qaroriga qarab dividendlar yiliga kamida bir marotaba to'lanadi.

Dividendlar pul shaklida aksiyalar qarz majburiyatlari, obligatsiyalar va boshqa majburiyatlar yoki natura shaklidagi aksiyadorlar umumiy yig'ilishining qaroriga muvofiq ravishda kuzatuv kengashining tavsiyasi bilan to'lanadi.

Dividendlar amaldagi qonunlar asosida milliy valyutada to'lanadi. Qo'shma korxonalarda chet ellik investorlarga dividendlar chet el valyutasi ko'rinishida to'lanadi. Chet el investorlariga to'lanadigan barcha dividendlar O'zbekiston

Respublikasining Markaziy bankining dividendlar to'lanadigan sanaga e'lon qilingan rasmiy ayirboshlash kursi bo'yicha hisoblanadi.

Ishlab chiqarish va sotish xarajatlarini kamaytirish, jadallashtirish asosida ishlab chiqarish xajmini oshirish foyda ortishining asosiy omillaridan biridir.

Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida tadbirkorlik faoliyatini rag'batlantirishning bosh omili foyda va uni taqsimlanishi hisoblanadi.

Korxonalarda foyda bugungi kunda korxonaga haqidagi qonunning moddasi va xissadorlik jamiyatlarida ta'sischi umumiy yig'ilishi qarori bilan taqsimlanadi. Yuqoridagi xolatlar bozor qonuniyatlariga ma'lum bir miqdorda zid keladi, chunki bozor sharoitida iqtisodiyotga davlat aralashuvi nisbatan past bo'ladi. Shunday ekan yuqoridagi xolat takomillashtirishni taqazo etadi.

1. Foydani taqsimlanishiga davlat aralashuvini bekor qilish. O'zimizga ma'lum har qanday tadbirkorlik faoliyatini boshlash, faoliyat nizomidan boshlanadi. Nizom yuqori davlat organlari tomonidan tasdiqlanadi. Unda barcha subyektlarning huquq, burch va majburiyatlari to'la aks ettiriladi. Nizomni tuzib chiqish va tasdiqlash yuqori davlat organlari talabidan kelib chiqiladi. Shunday ekan har bir tadbirkorlik subyektlari nizom asosida o'z burchlarini ado etadi. Bu esa foyda undan yuqori davlat organlariga to'lanadigan to'lovlarga ham taalluqli. O'z o'zidan ko'rinib turibdiki, davlatning yuqoridagi masalaga aralashuvini zarurati yo'q.

Ikkinchidan bozor talablari va bozor qonuniyatlariga ham zid hisoblanadi. Tadbirkorlikning erkinligiga xalaqit beradi.

2. Foydani taqsimlanishida ta'sischi manfaatlarini to'la ximoya qilish. Dividend to'lovlari majburiyatligini qonun yo'li bilan belgilab qo'yish. Sababi ayrim xolatlarda xissadorlik jamiyatlari umumiy yig'ilishi qarori bilan dividend to'lovlari ishlab chiqarishni yuksaltirishga sarflab yuborilmoqda. Bu bir tomondan korxonaning ustav kapitalini kengayishini ta'minlasada ikkinchi tomondan moliya bozorida qimmatbaho qog'ozlarning ikkilamchi savdosini amalga ortmasligiga olib kelmoqda.

3. Dividend to'lovlariga ajratmalar ajratishda kompleks ko'rsatkichlar tizimidan foydalanish:

- Foydaning umumiy miqdori;
- Aksiya nominal qiymati;
- Dividend to'lovlarining umumiy foydadagi ulushi;
- Xissadorlik jamiyatlarining aksiyadorlar oldidagi majburiyatlari va moddiy javobgarligi;
- Dividendlar to'lash muddatlari va ularni buzilishidagi alohida shartlar.

4. Dividend to'lovlari miqdorining korxonada nizomlarida yuqori va quyi chegaralarini belgilab qo'yilishi. To'g'ri tadbirkorlik faoliyati biznes rejalarini ishlab chiqishda, har qanday loyixalarni iqtisodiy jihatdan asoslashda ma'lum, ularni samarali ekanligi. Bu esa yuqoridagi fikrni maqsadlilikini asoslabgina qolmay ikkinchi tomonidan tadbirkorga moddiy javobgarlikni xis etishni ham majbur etadi.

5. Zaxira fondiga ajratmalar miqdorini optimal darajasini aniqlash va ularni doimiyligini ta'minlash. Zahira mablag'larni sug'urtalash.

6. Zahira fondi uchun ajratmalarni kelgusi davrda ustav kapital (sarmoya) sifatida to'la foydalanish huquqini ta'minlash.

Bu birinchi tomondan tavakkalchilik hisoblansada, qulay sharoit davrida qo'shimcha mahsulot va qo'shimcha daromad manbai hamdir.

Ikkinchi tomondan investisiya tanqilligini ta'minlaydi.

Uchinchidan pulni doimo aylanishdaligini ta'minlaydi.

7. Ishlab chiqarishni rivojlantirish va fan texnika taraqqiyoti fondi majburiyligini ta'minlash. Ularning miqdori foyda ulushining 30 foizigachani tashkil etilishini ta'minlash. Fond mablag'lari evaziga yangi texnika va texnologiyalar sotib olinishini ta'minlash, yangi turdagi mahsulotlar ishlab chiqarishni joriy etish sarflarini moliyalashtirish.

8. Boshqa turdagi maxsus fondlar yaratishda erkinliklar berish va bu fondlarga ajratmalar miqdorini foydaning 10 foizidan ortib ketmasligini ta'minlash.

Bu masala bozor sharoitida yanada chuqurroq o'rganishga ham loyiqdir ya'ni yuqoridagi tadbirlar bilan chegaralanib qoladi degan xulosa emas.

Tadqiqotlarimiz obyekti bo'lgan Oqdaryo tumani qishloq xo'jaligi korxonalarini misolida olingan foydaning taqsimlanishini tahlil qildik.

9-jadval

Oqdaryo tumani fermer xo'jaliklarida foydaning taqsimlanishi (mln so'm)

№	Ko'rsatkichlar	2009 yil	2010 yil	2011 yil	2011 yilda 2009 yilga nisbatan o'zgarish	
					Miqdoriy, +/-	Nisbiy, %
-	Yalpi foyda miqdori	5538	8850	11632,1	6094,1	2,1 m ko'p
	Taqsimlanishi:					
1.	Ijtimoiy sohalarga	421,3	510,2	540,4	119,1	128,3
	salmog'i, %	7,6	5,8	4,6	-3	x
2.	Moddiy texnika sotib olishga	3001,596	3734,7	4664,49	1662,9	155,4
	salmog'i, %	54,2	42,2	40,1	-14,1	x
3.	Ishlab chiqarishga investisiya	1087,7	3109,8	3422,6	2334,9	3,1 m ko'p
	salmog'i, %	19,6	35,1	29,4	9,8	x
4.	boshqa maqsadlar uchun	1027,4	1495,3	3004,6	1977,2	2,9 m ko'p
	salmog'i, %	18,6	16,9	25,8	7,2	x

*manba: Oqdaryo tumani qishloq va suv xo'jaligi bo'limi ma'lumotlari

9-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, 2009-2011 yillarda tuman fermer xo'jaliklarida foydaning 4 asosiy yo'nalishga taqsimlanganligi kuzatildi:

1. Ijtimoiy sohaga – 7,6 - 4,6%i;
2. Moddiy texnika sotib olishga - 54,2 - 40,1%i;
3. Ishlab chiqarishga investisiya – 19,6 – 29,4%;
4. boshqa maqsadlar uchun – 18,6 – 25,8%.

Tahlil qilingan yillarda fermer xo'jaliklari foydasining ishlab chiqarishga investisiya uchun 3,1 marta va boshqa maqsadlar uchun – 2,9 marta ko'p foydani taqsimlagani kuzatildi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Bozor iqtisodiyoti sharoitida foyda korxonalar xo'jalik faoliyati yakunlarini xarakterlovchi muxim iqtisodiy ko'rsatkichlardir.

Foyda - korxonaning moliyaviy natijalarida asosiy ko'rsatkichdir. Chunki foyda korxonaning daromadlarini xarajatlaridan ortiq (ko'p) bo'lgan qismini ifodalaydi.

Foydani taqsimlash va foydalanishda, uning rag'batlantiruvchi funksiyadan oqilona foydalanish korxonalarini erkin raqobat sharoitida bir maromda faoliyat ko'rsatishda muhim o'rin o'ynaydi. Shu bilan birga foyda korxonalarini moliyaviy resurslarini tashkil etishda asosiy manbalardan biridir. Qishloq xo'jalik korxonalarini boshqa tarmoqlar korxonalariga nisbatan kam foydaga egalik qiluvchi tarmoq korxonalarini hisoblanib, olingan foydadan maqsadli foydalanishgina xo'jaliklar iqtisodiy quvvatini ko'rsatib bera oladi.

Olib borilgan tadqiqotlar davomida quyidagi xulosalarga keldik:

1. Tuman fermer xo'jaliklarida asosiy 7 ekin turi bo'yicha foyda miqdori oshgan. Jumladan, 2009-2011 yillar davomida foyda paxtachilikda – 4 marta, mevachilikda – 2,7 marta, uzumchilikda – 2,2 marta, polizchilikda – 2,1 marta oshgan bo'lsa, g'allachilikda - 81,9%, kartoshkachilikda – 42,5%, sabzavotchilikda – 41,8%ga oshgan. Foydaning miqdori esa 2011 yilda

g'allachilikda – 4043 mln so'm, paxtachilikda – 2980 mln so'm, sabzavotchilikda – 2267 mln so'm, mekachilikda – 1065 mln so'mni tashkil etgan.

2. Oqdaryo tumani fermer xo'jaliklarida paxta sotishdan olingan yalpi foyda 2011 yilda 2009 yilga nisbatan 2244,5 mln so'mga oshgan bo'lib, bu o'zgarishga 3 omil ta'sir etgan: mahsulot miqdorining o'zgarishi hisobiga - 73,8 mln so'm va 1 tonna mahsulot sotish bahosining o'zgarishi hisobiga – 4445,1 mln so'm ijobiy hamda 1 tonna mahsulot tannarxining o'zgarishi hisobiga – 2274,4 mln so'mlik salbiy ta'sir ko'rsatgan.

3. Tuman fermer xo'jaliklarida 2009-2011 yillarda foydaning 4 asosiy yo'nalishga taqsimlanganligi kuzatildi:

1. Ijtimoiy sohaga – 7,6 - 4,6%i;
2. Moddiy texnika sotib olishga - 54,2 - 40,1%i;
3. Ishlab chiqarishga investisiya – 19,6 – 29,4%;
4. boshqa maqsadlar uchun – 18,6 – 25,8%.

Tahlil qilingan yillarda fermer xo'jaliklari foydasining ishlab chiqarishga investisiya uchun 3,1 marta va boshqa maqsadlar uchun – 2,9 marta ko'p foydani taqsimlagani kuzatildi.

Kelgusida foyda miqdorini oshirish va maqsadli taqimlashni amalga oshirish uchun quyidagi takliflarni ishlab chiqdik:

1. Foydaning shakllanishiga ta'sir qiluvchi omillardan kelib chiqqan holda ba'zi tadbirlarni amalga oshirish zarur:

- ishlab chiqarilayotgan mahsulot miqdorini yanada oshirib borish;
- mahsulotlar bozorbopligi va transportbopligini ta'minlash;
- mahsulot sotish kanallarini maqbullashtirishga erishish;
- ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar tannarxini kamaytirish.

2. Fermer xo'jaliklarining faqat qishloq xo'jaligining ba'zi turlari bilangina emas, xo'jaliklar imkoniyatidan kelib chiqqan holda qo'shimcha sohalar va

tarmoqlarga oid faoliyat turlarini ko'paytirish foydaning yanada oshishini ta'minlaydi;

3. Foydani taqsimlashda imkon qadar ilg'or texnika va texnologiyalar sotib olishga etibor qilib, mehnat sig'imini muttasil kamaytirib borish;

4. Tabiiy resurslar, ayniqsa suv resurslari taqchillashib borayotganligini hisobga olgan holda suv tejovchi sug'orishni joriy qilish. Bu quyidagi afzalliklarga ega:

- taqchillashib borayotgan suv resurslari tejaladi;

- tomchilatib sug'orish ekinlar hosildorligini oshirib, mahsulot sifatini oshiradi;

- asta-sekinlik bilan mehnat sig'imi kamayib boradi;

- sug'orish orqali mineral o'g'itlar tuproqqa berilganda, ularni tejash imkoniyatini beradi;

5. Fermer xo'jaliklari rahbarlarining bilim va malakalarini oshirib borishlariga ko'mak berish. Ularga maslahat xizmatlari berishni amalga oshirish;

6. Foydani maqbul tarzda taqsimlanishini ta'min etib borish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi. – T.: O'zbekiston, 2008.
2. O'zbekiston Respublikasi QSXV buyrug'i. Paxta yetishtiruvchi kishlok xo'jalik korxonalariga topshirgan paxta hosildan ularga tegishli bo'lgan paxta sheluxa va kunjarasini kaytarish tartibi to'g'risida Nizom. № 169. 04.08.2006
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. Oziq-ovqat ekinlari ekiladigan maydonlarni optimallashtirish va ularni yetishtirishni ko'paytirish chora-tadbirlari to'g'risida. PF–4041. 20.10.2008.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. Xorijiy investisiyalar va kreditlarni jalb etish hamda o'zlashtirish jarayonini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida. PQ–927. 24.07.2008.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. Ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmani yanada rivojlantirish yuzasidan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida. PQ–1041. 20.01.2009.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. Tadbirkorlik faoliyatini yanada qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida. PQ–1112. 2009 yil 15 may
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yili Davlat dasturi to'g'risida. PQ-1474. 07.02.2011.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga kredit berishni ko'paytirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida. PQ-1501. 11.03.2011.

9. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. –T.: O'zbekiston, 2009.

10. Karimov I.A. Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. 2009 yilning asosiy yakunlari va 2010 yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruza // Xalq so'zi, 2010.

11. Karimov I. Mamlakatimizni modernizasiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish – ustuvor maqsadimizdir. – Prezident Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruzasi // Xalq so'zi. 28.01.2010.

12. Karimov I.A. Barcha reja va dasturlarimiz Vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi: Prezident Islom Karimovning 2010 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2011 yilga mo'ljallangan eng muhim ustuvor yo'nalishlarga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi// Xalq so'zi. 22.01.2011

13. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. -T.: O'zbekiston, 2011. – 440 b.

14. Karimov I.A. 2012-yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradigan yil bo'ladi: Prezident Islom Karimovning 2011-yilning asosiy yakunlari va 2012-yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi//Xalq so'zi. 20.01.2012.

15. Abdullayev A.A., Aybeshov X.A. Fermer xo'jaligi iqtisodi. –Andijon: Aloqachi, 2008. -187 b.

16. Azizqulov B. Ilg'or texnologiyalar iqtisodiy samaradorligi// O'zbekiston qishloq xo'jaligi. –Toshkent, 2008. – 9-son. -35-b.

17. Aliqulov A. Paxta tannarxi//O'zbekiston qishloq xo'jaligi. –Toshkent, 2009. -12-son. -25-b.

18. Ashurov O. Turli usullarda paxta yetishtirishda suv sarfi// O'zbekiston qishloq xo'jaligi. –Toshkent, 2008. -9-son. -24-b.
19. Doliyev T. Sarhisob pallasini//O'zbekiston qishloq xo'jaligi. –Toshkent, 2008. -10-son. -3-b.
20. Jo'rayev F. Qishloq xo'jalik korxonalarida ishlab chikarishni tashkil etish. – T.: Istiqlol, 2004.
21. Ismoilov A., Murtazayev O. Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti. –T.: Moliya, 2005.
22. Murtazayev O. Paxtachilik agrosanoat majmuasi samaradorligini oshirish muammolari. –T.: FAN, 2005.
23. Murtazayev O., G'aniyev I., Hasanov Sh., Axrorov F. Agrar siyosat va qishloq xo'jalik bozorlari. –Samarqand: N.Doba, 2009.
24. Nuriddinova Sh. Qishloq xo'jaligidagi islohotlarning natija va istiqbollari//O'zbekiston qishloq xo'jaligi. –Toshkent, 2010. - 11-son.. -24-b.
25. Oripov R.O., Xalilov N.X. O'simlikshunoslik. -Samarqand, 2005.
26. Ostonaqulov T.E., Zuyev I. Sabzavot ekinlari biologiyasi va o'stirish texnologiyasi. -T.: 2010. -303 b.
27. Umarov M. Makkajo'xorini kulisli ekishning g'o'za hosildorligiga ta'siri//O'zbekiston qishloq xo'jaligi. –Toshkent, 2008. -9-son. -28-b.
28. Umurzoqov U.T., Toshboyev A.Sh., Rashidov Sh., Toshboyev A.A. Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti va menejmenti. –T.: Iqtisod-moliya, 2008. -267 b.
29. Umurzoqov U.T., Toshboyev A.Sh., Toshboyev A.A. Fermer xo'jaligi iqtisodi. –T.: Iqtisod-moliya, 2008. -276 b.
30. Ergashev R.X. Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti. –T.: EXTREMUM PRESS, 2011. -416 b.
31. Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisining, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlarining o'rinbosarlari, ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha yordamchilari, tuman va shahar hokimlarining mintaqaviy seminarlari materiallari, 2010.

32. Qudratov T. O'simlikchilik va chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish samaradorligining statistik tahlili. -Samarqand, 2010.
33. G'aniyev I.M. Paxtachilik majmui iqtisodiy samaradorligini oshirish imkoniyatlari. Avtoreferat. -Samarqand, 2005.
34. Hasanov Sh.T. Sabzavotchilik mahsulotlari ishlab chiqarish va qayta ishlash samaradorligini oshirish. Avtoreferat. -Samarqand, 2006.
35. Oqdaryo darg'om tumani qishloq va suv xo'jaligi ma'lumotlari
36. Internet ma'lumoti: www.press-service.uz
37. Internet ma'lumoti: www.ers.usda.gov,
38. Internet ma'lumoti: www.samqxi.uz,
39. Internet ma'lumoti: www.edu.uz,